

Mikromoliyaviy xizmatlarni taqdim etish bo‘yicha
BOSH SHARTLAR (Ommaviy oferta)

1. Umumiy qoidalar

- 1.1. Ushbu Bosh Shartlar (keyingi o‘rinlarda “BSh” deb ataladi) “TBC CREDIT” MChJ MMTning (keyingi o‘rinlarda “MMT” deb ataladi) ushbu BShga muvofiq jismoniy shaxslarga (keyingi o‘rinlarda “Mijoz” deb ataladi) mikromoliyaviy xizmatlar (keyingi o‘rinlarda “Xizmatlar” deb ataladi) ko‘rsatish bo‘yicha rasmiy taklifini ifodalaydi.
- 1.2. Ushbu BSh maqsadlari uchun MMT va Mijoz bundan keyin birgalikda “Tomonlar” deb ataladi.
- 1.3. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 367-moddasiga muvofiq ushbu hujjat ommaviy oferta hisoblanadi. Ushbu oferta shartlarini qabul qilgan (akseptlagan) shaxs Mijozga aylanadi.
- 1.4. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 370-moddasiga muvofiq ofertani akseptlash to‘liq va so‘zsiz amalga oshirilishi lozim.
- 1.5. MMT va Mijoz ushbu BShni tuzish va bajarish uchun zarur bo‘lgan o‘z huquq va layoqatliligining o‘zaro kafolatlarini taqdim etadilar.

2. Atama va tushunchalar

Quyida keltirilgan atamalar, agar matndan boshqacha ma’no anglashilmasa, quyidagi ma’nolarga ega va ushbu BShning ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi.

Aksept — bu Mijozning Mobil ilovada joylashtirilgan mazkur BShni qabul qilishga bildirilgan roziligidir.

Mijoz — Mobil ilova orqali MMTga murojaat qilgan va ushbu BShlarni Mobil ilovada akseptlash orqali ularga rozilik bildirgan jismoniy shaxs.

Mobil ilova — Mijoz, MMT va mobil ilova o‘rtasida MMT xizmatlaridan foydalanish maqsadida o‘zaro hamkorlik va axborot almashinuvini ta’minlovchi tashkiliy, axborot va texnik yechimlarni o‘z ichiga olgan dasturiy-apparat kompleksini ifodalovchi mobil ilovalar (Android, iOS) uchun “TBC UZ” mobil ilovasi.

Push-xabarnoma — Mijozning mobil qurilmasida o‘rnatilgan ilovadan ekranda qalqib chiquvchi xabar ko‘rinishida yuboriladigan elektron xabarnoma.

Elektron aloqa kanali — Mijoz bilan elektron hamkorlikning har qanday usuli, jumladan, lekin bular bilan cheklanmagan holda, Masofaviy xizmat ko‘rsatish kanallari, sms-xabarlar, Mijozning telefon raqamiga Push-xabarnomalar, shuningdek, Mijozning ro‘yxatdan o‘tgan elektron pochta manziliga yuboriladigan elektron xatlar.

3. Mijozni identifikatsiya qilish

- 3.1. Mobil ilovada harakatlarni amalga oshirish va mikroqarz olish maqsadida Mijoz Internet tarmog‘iga erkin kirish orqali mobil ilovada ro‘yxatdan o‘tish va identifikatsiya qilish jarayonidan o‘tishi shart.

- 3.2. Ushbu BSHni akseptlagan holda, Mijoz MMT xizmatlaridan foydalanish uchun murojaat qilganda, MMT tomonidan uning shaxsini tegishli tekshiruvdan o'tkazishga va identifikatsiyalashga rozilik bildiradi, shuningdek, MMTga O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga muvofiq uchinchi shaxslardan, shu jumladan "TBC Bank" ATBdan identifikatsiya maqsadlari uchun zarur bo'lgan tegishli so'rovlarni yuborish va ma'lumotlarni olish vakolatini beradi.

4. Umumiy shartlar

- 4.1. Mazkur BSh "TBC UZ" mobil ilovasi orqali Mijoz va MMT o'rtasida tuziladigan onlayn mikroqarz shartnomasining tarkibiy va ajralmas qismi hisoblanadi.
- 4.2. Mijozga xizmat ko'rsatish sifatini nazorat qilish uchun MMT Mijozni oldindan xabardor qilgan holda, u MMTga murojaat qilganda Mijoz bilan telefon so'zlashuvlarini yozib olish, shuningdek, bunday murojaat qilish holatini tasdiqlash uchun yozuvdan foydalanish huquqiga ega.
- 4.3. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va/yoki MFOning ichki me'yoriy hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda yozishmalar olib borish, xabarnomalar yuborish, operatsiyalarni amalga oshirish va bitimlar tuzish va boshqa harakatlar uchun zarur bo'lganda quyidagi tasdiqlash turlaridan biri/bir nechtasidan foydalanish mumkin: elektron raqamli imzo, Mobil ilova, elektron aloqa kanallari, telefon aloqasi, jismoniy imzo yoki O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi talablariga zid bo'lmagan boshqa tasdiqlash vositalari orqali olingan tasdiqlar.

5. Tomonlarning huquq va majburiyatlari

5.1. MMT majburiyatlari:

- 5.1.1. Mijoz tomonidan ushbu BSh qabul qilingan vaqtdan boshlab, MMT ushbu BSh bandlariga, shu bilan birga O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi talablariga muvofiq Mijoz oldidagi o'z majburiyatlarini to'liq hajmda bajarish majburiyatini oladi.
- 5.1.2. MMT Mijoz bilan o'zaro munosabatlarni amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi normalari va talablariga rioya qilish majburiyatini oladi.
- 5.1.3. Mijozning hujjatlarini ko'rib chiqish va Xizmat ko'rsatish yoki ushbu xizmatni ko'rsatishni asosli ravishda rad etish to'g'risida qaror qabul qilish va bunday qaror qabul qilingan kundan boshlab uch kundan kechiktirmay Mijozni qabul qilingan qaror haqida xabardor qilish.

5.2. MMT huquqlari:

- 5.2.1. Mijoz o'z majburiyatlarini belgilangan muddatlarda bajarmagan taqdirda, MMT tuzilgan Shartnomadan kelib chiqadigan o'z huquqlari va (yoki) majburiyatlarini Mijozning oldindan roziligini olmasdan uchinchi shaxslarga o'tkazishga haqli.
- 5.2.2. MMT Mijozning kreditga layoqatliligiga asosli shubhalar paydo bo'lgan taqdirda, Mijozga Xizmat ko'rsatishni rad etishga haqli.
- 5.2.3. Mijoz tomonidan noto'g'ri ma'lumot taqdim etilgan taqdirda, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida, ushbu BShda nazarda tutilgan boshqa hollarda Xizmat ko'rsatishni to'xtatib turish, ushbu to'xtatib turish Mijoz tomonidan yozma tushuntirish berilgunga qadar amal qiladi.
- 5.2.4. Mijozning kreditga layoqatliligini o'rganish maqsadida har qanday uchinchi shaxslardan qo'shimcha ma'lumot so'rash.

- 5.2.5. Mijoz tomonidan O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi bilan taqiqlangan tovarlar va xizmatlar haqini to'lash, sotish va xizmatlar ko'rsatish xavfi mavjud bo'lganda ushbu BSh, onlayn-mikroqarz shartnomasini bir tomonlama bekor qilish.
- 5.2.6. Mijozning o'z majburiyatlarini bajarmasligi bilan bog'liq sud qarorini olish va ijro etish bo'yicha har qanday xarajatlarni, shu jumladan davlat bojlari, pochta xarajatlari va ishni sudda ko'rib chiqish bilan bog'liq boshqa har qanday chiqimlarni Mijozdan undirish.
- 5.2.7. Axborot, reklama, marketing va boshqa turdagi xabarlarni yuborish.
- 5.2.8. MMT O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida, shuningdek, Mijoz bilan tuziladigan shartnomalar shartlarida nazarda tutilgan boshqa huquqlarga ega bo'ladi.
- 5.3. Mijoz majburiyatlari:
- 5.3.1. Xizmatlardan foydalanish uchun murojaat qilganda ushbu BSh, shuningdek, mobil ilova orqali tuziladigan onlayn-mikroqarz shartnomasi shartlari bilan tanishish.
- 5.3.2. MMTning Mijoz oldidagi majburiyatlarini bajarish maqsadida, Mijoz o'zining kreditga layoqatliligini va huquqiy vakolatini aniq aniqlash hamda baholash imkonini beradigan ishonchli, to'liq va dolzarb ma'lumotlarni taqdim etishi shart.
- 5.3.3. Onlayn-mikroqarz shartnomasi va mazkur BShda nazarda tutilgan majburiyatlar bo'yicha to'lovni o'z vaqtida va to'liq hajmda amalga oshirish.
- 5.3.4. Onlayn-mikroqarz shartnomasi doirasida olingan pul mablag'laridan faqat tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish bilan bog'liq bo'lmagan shaxsiy ehtiyojlar uchun foydalanish.
- 5.3.5. Shaxsiy identifikatsiya ma'lumotlarini, shuningdek, mobil ilovaga kirish uchun ma'lumotlarni uchinchi shaxslarga bermaslik hamda ularning saqlanishi va ruxsatsiz kirishdan himoyalanihini ta'minlash.
- 5.3.6. Mobil ilovaga kirish uchun foydalaniladigan qurilmalar va texnik vositalarning (jumladan, kompyuterlar, smartfonlar, elektron to'lov vositalari va ma'lumotlar bazalari) ishlash imkoniyati, axborot xavfsizligi va himoyasini mustaqil ravishda ta'minlash.
- 5.3.7. Mobil ilovasidan qonun hujjatlariga zid maqsadlarda foydalanmaslik, shuningdek, uchinchi shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini buzadigan xatti-harakatlarni sodir etmaslik.
- 5.3.8. Onlayn mikroqarz shartnomasi bo'yicha olingan mablag'lardan faqat qonuniy usulda foydalanish va mobil ilovadan foydalanish natijasida Mijoz yoki uchinchi shaxslar tomonidan yetkazilgan har qanday zarar uchun javobgarlikni MMTga yuklamaslik.
- 5.3.9. Mobil ilova orqali yuboriladigan xabarnomalar va boshqa xabarlarni kuzatib borish hamda ularda keltirilgan ma'lumotlarni o'z vaqtida inobatga olish.
- 5.3.10. MMT vakillari va xodimlari bilan o'zaro munosabatlar doirasida amaldagi qonunchilik normalariga rioya qilish, shuningdek, ular bilan o'zaro munosabatlarda hurmat, muloyimlik va xushmuomalalik namoyon etish.
- 5.3.11. Mijoz MMT bilan o'zaro munosabatlarga kirishar ekan, o'z roziligini bildiradi va MMTga quyidagi xatti-harakatlarni amalga oshirish uchun vakolat beradi:
- a) Mijoz tomonidan taqdim etilgan qo'shimcha telefon raqamlariga Mijozning qarzdorligi mavjudligi va/yoki uning so'ndirilishi, shuningdek, ko'rsatilgan qarzdorlikni undirish bo'yicha ko'rilayotgan choralar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan sms-xabarlarni yuborish;
- b) Mijoz tomonidan qo'shimcha aloqa shaxslari sifatida ko'rsatilgan shaxslarning bog'lanish uchun ma'lumotlaridan foydalanib (shu jumladan telefon raqamlariga)

- qo'ng'iroq qilish. Bundan maqsad Mijoz haqida ma'lumot olish, uning qarzdorligi mavjudligi to'g'risida xabardor qilish va uni undirish choralari haqida ma'lumot berish.
- 5.3.12. "Kredit axboroti almashinuvi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 19-moddasi va "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 18-moddasiga muvofiq, Mijoz onlayn mikroqarz shartnomasini tuzish va bajarish maqsadida MMTga uning kredit hisobotini olishga, kredit tarixini shakllantirish va saqlashga, kredit axboroti almashinuviga, shuningdek, uning shaxsga doir ma'lumotlariga ishlov berishga to'liq va so'zsiz rozilik/topshiriq beradi.
- 5.3.13. Mobil ilovaga kiritilgan har qanday shaxsiy ro'yxatga olish ma'lumotlarining o'zgarishi haqida MMTni darhol xabardor qilish.
- 5.3.14. MMTni O'zbekiston Respublikasidan tashqariga chiqish sanalari va muddatlari to'g'risida ushbu BShda nazarda tutilgan har qanday aloqa kanallari orqali, biroq mo'ljallanayotgan ketish sanasidan kamida 5 kalendar kun oldin xabardor qilish.
- 5.3.15. MMT tomonidan texnik xato tufayli pul mablag'lari noto'g'ri o'tkazilgan taqdirda, Mijoz bu mablag'larni o'zining yoki boshqa ehtiyojlariga sarflamaslik va bunday xato aniqlangan kundan kechiktirmay MMTga darhol xabar berish majburiyatini oladi. Mobil ilovadagi Xizmat ko'rsatish shartlari va ushbu shartlardagi o'zgarishlarni mustaqil ravishda kirib ko'rish, kuzatib borish va tanishish.

6. Xizmatlarni taqdim etish tartibi

- 6.1. Xizmatdan foydalanish uchun Mijoz mazkur BSh bilan Mobil ilovada tanishib chiqishi va unga roziligini aktseptlash orqali bildirishi, shuningdek, mikroqarz olish uchun so'rov yuborishi shart.
- 6.2. Ariza qabul qilingandan so'ng, tahlil va baholash natijalariga ko'ra, MMT Mijozni Mobil ilovada moliyalashtirishning mumkin bo'lgan summasi yoki mikroqarz berish rad etilganligi haqida xabardor qiladi.
- 6.3. Mumkin bo'lgan moliyalashtirish miqdori MMTda mavjud Mijoz haqidagi ma'lumotlar asosida, shu jumladan kreditga layoqatlilikni baholash (skoring) tizimidan foydalangan holda belgilanadi. Skoring o'tkazish uslubi MMTning tijorat siri hisoblanib, maxfiylik talablariga muvofiq himoyalaniishi shart.
- 6.4. Ariza topshirishda Mijoz mobil ilovada bir yoki bir nechta amaldagi bank kartalarini ko'rsatishi va biriktirishi shart. Mijoz MMTga ushbu BSh va amaldagi qonunchilikda ko'zda tutilgan hollarda ko'rsatilgan kartalardan muddati o'tgan qarzdorlikni qaytarish hisobiga pul mablag'larini yechib olish, shuningdek, qarzdorlikning to'liq summasini muddatidan oldin undirish huquqini beradi. Onlayn mikroqarz shartnomasining amal qilish muddati davomida Mijoz biriktirilgan bank kartalarini Mobil ilovadan o'chirib tashlamaslik majburiyatini oladi.
- 6.5. Mijoz moliyalashtirishning mumkin bo'lgan eng yuqori miqdoridan oshmaydigan summaga ariza yuborishga, shuningdek, mikroqarzni qaytarish uchun afzalroq bo'lgan oy sanasini ko'rsatishga yoxud taklif etilgan summaga rozi bo'lmagan taqdirda mikroqarz olishni rad etishga haqli.
- 6.6. Mijozning kreditga layoqatliligini baholash maqsadida MMT boshqa axborot manbalari bilan bir qatorda Mijozning kredit tarixi to'g'risidagi ma'lumotlarni olish uchun kredit byurolariga so'rovlar yuborishga haqli.
- 6.7. Mikroqarz ma'qullangan taqdirda, MMT Mijozning dolzarb qarz yukini tahlil qilish maqsadida mablag'larni o'tkazishdan oldin kredit byurosiga takroran so'rov yuborishga haqli. Mikroqarz berish mo'ljallanayotgan vaqtda qarz yuki ko'paygan va/yoki muddati o'tgan qarzdorlik mavjud bo'lgan taqdirda, MMT uni berishni rad etishga haqli. Bunda

- Mijoz qarz yuki kamaytirilganidan va/yoki mavjud muddati o'tgan qarzdorlik to'langanidan keyin mikroqarz olish uchun qayta murojaat qilish huquqiga ega.
- 6.8. Mikroqarz berish haqida ijobiy qaror qabul qilinganda, MMT Qarz oluvchiga Mobil ilovada SMS-xabar va/yoki Push-bildirishnoma orqali tegishli xabarnomani yuboradi.
 - 6.9. Mijoz MMT tomonidan mikroqarz berish to'g'risida qaror qabul qilingunga qadar va tegishli xabarnoma olingunga qadar berilgan arizani qaytarib olishga haqli.
 - 6.10. Mijoz mikroqarz berish va pul mablag'larini Mijozning hisobvarag'iga o'tkazish shartlariga rozi bo'lgan taqdirda, MMT ko'rsatilgan mablag'lardan foydalanishga 48 (qirq sakkiz) soatgacha bo'lgan muddatga vaqtinchalik cheklov o'rnatishga haqli.
 - 6.11. Belgilangan cheklovlar haqida MMT Mijozni elektron aloqa kanallari orqali xabardor qiladi va bunday cheklovlarni olib tashlash uchun zarur bo'lgan harakatlarni ko'rsatadi.
 - 6.12. Mijozning Mobil ilovada mikroqarz olishga roziligi tasdiqlangan vaqtdan boshlab, onlayn mikroqarz shartnomasi shartlari Tomonlar o'rtasida kelishilgan va qabul qilingan deb hisoblanadi.
 - 6.13. Mijoz ushbu BSh doirasida tuziladigan shartnomalardan kelib chiqadigan o'z huquq va majburiyatlarini MMTning oldindan yozma roziligisiz uchinchi shaxslarga berishga (topshirishga) haqli emas.
 - 6.14. MMT ushbu BSh doirasida tuzilgan mikroqarz shartnomasi bo'yicha qarzdorlikni undirish to'g'risidagi da'vo bilan sud organlariga murojaat qilgan taqdirda, MMT Qarz oluvchidan da'vo berish sanasida belgilangan bazaviy hisoblash miqdorining bir (1) baravari miqdorida jarima undirishga haqli.

7. Fors-major holatlari

- 7.1. MMT va Mijoz ushbu BSh bo'yicha majburiyatlarni qisman yoki to'liq bajarmaganlik uchun, agar bu bajarmaslik yengib bo'lmaydigan kuch (fors-major) holatlari tufayli yuzaga kelgan bo'lsa, javobgarlikdan ozod qilinadi. Fors-major holatlariga quyidagilar kiradi: tabiiy hodisalar (zilzilalar, ko'chkilar, bo'ronlar, qurg'oqchilik va boshqalar) yoki ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatlar (urush holati, qamalllar, davlat manfaatlarini yo'lida import va eksportni taqiqlash va boshqalar), epidemiyalar, pandemiyalar, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga ko'ra fors-major deb tan olinadigan, MMT va Mijozning irodasi va harakatlariga bog'liq bo'lmagan boshqa holatlar tufayli yuzaga kelgan favqulodda, oldini olish mumkin bo'lmagan va kutilmagan vaziyatlar hisoblanadi. Bunday holatlar sababli, MMT va Mijoz ushbu Bosh Shartlar bo'yicha o'z zimmlariga olgan majburiyatlarni bajara olmaydilar.
- 7.2. Fors-major holatlari yuzaga kelgan taqdirda, majburiyatlarni bajarish bo'yicha belgilangan muddatlar fors-major holatlari davom etayotgan muddatga ko'chiriladi.
- 7.3. Fors-major holatlari tufayli majburiyatlarni bajarish imkoniyati bo'lmaganda Tomon yuqorida ko'rsatilgan holatlar yuzaga kelgan va tugagan vaqtdan boshlab 5 (besh) kalendar kundan kechiktirmay ikkinchi Tomonni ularning yuzaga kelganligi va tugaganligi to'g'risida yozma shaklda xabardor qilishi shart.

8. Tomonlarning mas'uliyati

- 8.1. Shartnoma va ushbu Bosh Shartlar bajarilmaganligi yoki lozim darajada bajarilmaganligi uchun Tomonlar ushbu Bosh shartlarga va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq javobgar bo'ladilar.
- 8.2. Majburiyatlarni bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan Tomon ushbu Bosh

Shartlarga va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ikkinchi Tomonga bunday bajarmaslik tufayli yetkazilgan zararni qoplashi shart.

- 8.3. Mobil ilovada joylashtirilgan barcha matnli ma'lumotlar va grafik tasvirlar qonuniy huquq egasiga ega bo'lib, ushbu ma'lumotlar va tasvirlardan noqonuniy foydalanish O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq ta'qib qilinadi.
- 8.4. MMT Mobil ilovadan foydalanish natijasida Mijozning bilvosita/bevosita yo'qotishlari yoki boy berilgan foydasi uchun javobgar bo'lmaydi.
- 8.5. MMT mobil ilovaning ishlashini ta'minlaydigan dasturiy-apparat majmuasidagi nosozliklar, xatolar va uzilishlar uchun, shuningdek MMTga bog'liq bo'lmagan sabablar tufayli Mijozning mobil ilovadan vaqtincha foydalana olmasligi hamda shu bilan bog'liq Mijozga yetkazilgan zararlar uchun javobgar hisoblanmaydi.
- 8.6. MMT quyidagilar natijasida yuzaga kelgan Mijozning zararlar uchun javobgar bo'lmaydi:
 - 8.6.1. Mobil ilovaga kirish uchun Mijoz tomonidan foydalaniladigan uskunalar va dasturiy ta'minotda "viruslar" va boshqa zararli dasturlarning mavjudligi.
 - 8.6.2. Mobil ilovada foydalaniladigan rekvizitlar noto'g'ri to'ldirilganda;
 - 8.6.3. Mijoz tomonidan onlayn mikroqarz shartnomasi va mazkur BSh talablari buzilganda;
 - 8.6.4. uchinchi shaxslarning g'ayriqonuniy xatti-harakatlari, shu jumladan Mijozning identifikatsion ma'lumotlaridan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan holatlarda;
 - 8.6.5. Mijoz tomonidan to'lovlarni amalga oshirishning belgilangan tartibi buzilganda.
- 8.7. Onlayn-mikroqarz shartnomasi akseptlangan taqdirda va keyinchalik Mijoz ko'rsatilgan shartnomani akseptlashda kelishilgan to'lov jadvalida belgilangan muddatlarda to'lov majburiyatlarini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan taqdirda, MMT o'z xohishiga ko'ra onlayn-mikroqarz shartnomasi bo'yicha qarzдорlikni talab qilish huquqini uchinchi shaxslarga o'tkazishga, shuningdek, sudga da'vo arizasi bilan murojaat qilishga haqli. Qarzдорlikni undirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish munosabati bilan MMT tomonidan sarflangan barcha xarajatlar va yetkazilgan zararlar Mijoz tomonidan to'liq hajmda qoplanishi lozim.

9. Nizolarni hal qilish tartibi

- 9.1. Ushbu Shartnomadan yoki u bilan bog'liq holda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan barcha nizolarni MMT va Mijoz ikki tomonlama muzokaralar yo'li bilan hal qilishga intiladi.
- 9.2. Agar nizo tinch yo'l bilan hal etilmasa, ushbu nizo MMTning ixtiyoriga ko'ra quyidagicha uzil-kesil hal etilishi lozim:
 - 9.2.1. Javobgarning ro'yxatdan o'tgan hududi yoki MMT ro'yxatdan o'tgan hududi bo'yicha sud tomonidan, shuningdek, MMT O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq o'z xohishiga ko'ra fuqarolik ishlari bo'yicha Mirobod tumanlararo sudiga, fuqarolik ishlari bo'yicha Mirzo Ulug'bek tumanlararo sudiga, fuqarolik ishlari bo'yicha Uchtepa tumanlararo sudiga, fuqarolik ishlari bo'yicha Shayxontohur tumanlararo sudiga, fuqarolik ishlari bo'yicha Yakkasaroy tumanlararo sudiga da'vo arizalari bilan murojaat qilish huquqiga ega.

- 9.2.2. yoki qonun hujjatlarida belgilangan tartibda notarial ijro yozuvini olish orqali amalga oshiriladi. Notarial ijro yozuvini olish yo'li bilan qarzdorlikni undirishda, Mijoz notarial ijro yozuvining haqiqiyligini so'zsiz tan olishini tasdiqlaydi.

10. Boshqa shartlar

- 10.1. Mijoz MMT bilan o'zaro hamkorlikka kirishar ekan, O'zbekiston Respublikasining "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq O'zbekiston Respublikasi hududida ham, uning tashqarisida ham MMT, shu jumladan uning affilangan shaxslari va MMT vakolat bergan boshqa tashkilotlarga quyidagilarga o'z roziligini bildiradi:
- 10.1.1. Shaxsga doir ma'lumotlarni avtomatlashtirilgan tarzda, shuningdek, avtomatlashtirish vositalaridan foydalanmagan holda ishlov berilishiga, xususan, to'planishiga, yozib olinishiga, tizimlashtirilishiga, jamlanishiga, saqlanishiga, aniqlashtirish (yangilash, o'zgartirish, to'ldirish)ga, ajratib olinishiga, foydalanilishiga, uchinchi shaxslarga, shu jumladan shaxsiy ma'lumotlar subyektlarining huquqlarini yetarli darajada himoya qilishni ta'minlaydigan va ta'minlamaydigan xorijiy davlatlar hududiga uzatilishiga, tarqatilishiga, hamda Internet tarmog'ining ochiq manbalarida - MMT saytlari sahifalarida joylashtirilishiga.
- 10.2. Mijoz MMTdan o'zining shaxsiy ma'lumotlari, ularga ishlov berish va ulardan foydalanish to'g'risida to'liq ma'lumot so'rash, shuningdek, pochta manziliga yoki aloqa ma'lumotlari yordamida MMT nomiga tegishli yozma so'rov yuborish orqali noto'g'ri yoki to'liq bo'lmagan shaxsiy ma'lumotlarni chiqarib tashlash yoki tuzatish/to'ldirishni talab qilish huquqiga ega.
- 10.3. Ushbu BSh istalgan vaqtda Tomonlarning kelishuvi asosida yoki O'zR qonunchiligida nazarda tutilgan boshqa hollarda bekor qilinishi mumkin. Ushbu BShning bekor qilinishi Mijozni MMT oldida qabul qilingan majburiyatlarni to'liq bajarishdan ozod qilmaydi.
- 10.4. MMT Mobil ilovada tegishli ma'lumotlarni joylashtirish orqali ushbu BShga Mijozning shartlariga ta'sir etmaydigan va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga zid bo'lmagan o'zgartirishlar kiritish huquqiga ega. Agar Mijoz BShga kiritilgan o'zgartirishlar e'lon qilingan kundan boshlab 10 kun ichida BShga kiritilgan o'zgartirishlar bo'yicha hech qanday e'tiroz yoki norozilik bildirmasa va xizmatlardan foydalanishni davom ettirsa, ushbu o'zgartirishlar qonuniy kuchga kiradi va Mijoz tomonidan qabul qilingan hisoblanadi.
- 10.5. Agar qonun hujjatlariga o'zgartirishlar kiritilsa va buning natijasida Mijoz bilan tuzilgan shartnomalar bo'yicha majburiyatlarni bajarish imkonsiz bo'lib qolsa, MMT istalgan Shartnomalarga va ushbu BShga bir tomonlama tartibda o'zgartirishlar kiritishga haqli.
- 10.6. Mazkur BSh va MMTning boshqa ichki me'yoriy hujjatlari bilan aniq tartibga solinmagan barcha masalalar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq tartibga solinishi lozim.
- 10.7. Agar ushbu BShning biror-bir bandi amaldagi qonunchilikka muvofiq haqiqiy emas, noqonuniy yoki yuridik kuchini yo'qotgan deb topilsa, ushbu BShning qolgan bandlari o'z kuchini saqlab qoladi va to'liq hajmda qo'llanilishi lozim. Tomonlar bunday o'z kuchini yo'qotgan, noqonuniy yoki amalga oshirib bo'lmaydigan bandni ma'nosi va maqsadiga ko'ra dastlabki qoidaga maksimal darajada yaqin bo'lgan boshqa, amaldagi, qonuniy va yuridik kuchga ega bo'lgan bandga almashtirish majburiyatini oladilar.

10.8. Mazkur BShning o'zbek, rus va ingliz tillaridagi matnlari o'rtasida tafovutlar mavjud bo'lgan taqdirda, rus tilidagi matn ustuvor hisoblanadi. Shu bilan birga, agar Mijoz Mobil ilovada ingliz tilini tanlasa va BSh hamda ingliz tilidagi shartnomani qabul qilsa, u ushbu BShning rus tilidagi talqini asosiy ekanligini va nizolar yuzaga kelgan taqdirda Tomonlar o'rtasidagi huquqiy munosabatlarni tartibga solish uchun qo'llanilishini tasdiqlaydi va bunga o'z roziligini bildiradi.